

O‘ZBEK TILIDA NUTQIY AKTLARNING SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI (EMPIRIK TAHLIL)

Rasulova Diyoraxon Quvondiq Qizi

Turon universiteti Lingvistika (o‘zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Gmail: rasulovadiyoraxon@gmail.com

Tel: +998 91 634 73 63

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi nutqiy aktlarning sotsiopragmatik xususiyatlari empirik tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqotda nutqiy aktlarning ijtimoiy omillar, kommunikativ vaziyat, suhbat ishtirokchilarining maqomi, yoshi va madaniy munosabatlari bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek tilida iltimos, buyruq, rad etish, minnatdorchilik, uzr va tabrik kabi nutqiy aktlarning qo‘llanishida milliy-madaniy xususiyatlarning namoyon bo‘lishi yoritiladi. Empirik materiallar asosida nutqiy aktlarning pragmatik ma‘nosi, kommunikativ strategiyalari hamda diskursdagi funksional vazifalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy akt, sotsiopragmatika, pragmatika, empirik tahlil, kommunikativ strategiya, diskurs, illokutiv akt, o‘zbek tili, kommunikativ vaziyat, milliy-madaniy xususiyat.

Annotation. This article examines the sociopragmatic features of speech acts in the Uzbek language based on empirical analysis. The study analyzes the relationship between speech acts and social factors such as communicative situation, social status, age, and cultural relations of interlocutors. In addition, the article highlights the manifestation of national and cultural characteristics in the use of speech acts such as requests, commands, refusals, gratitude, apologies, and congratulations in Uzbek. Based on empirical data, the pragmatic meanings, communicative strategies, and functional roles of speech acts in discourse are revealed.

Keywords: speech act, sociopragmatics, pragmatics, empirical analysis, communicative strategy, discourse, illocutionary act, Uzbek language, communicative situation, national-cultural characteristics.

Nutqiy aktlar nazariyasini lingvistik pragmatika doirasida talqin qilishda morfologik kategoriyalar bilan pragmatik birliklar o'rtasidagi munosabat alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, nutqiy akt turlarini universal kommunikativ ma'nolar tizimi sifatida baholash mumkin. Bunday yondashuvda iltimos, buyruq, va'da, rad etish, tasdiqlash, tahdid, maslahat yoki uzr kabi nutqiy aktlar kommunikativ faoliyatning funksional-semantik birliklari sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda, pragmatikaning asosiy vazifalaridan biri mazkur universal kommunikativ ma'nolarning muayyan tilda qanday lisoniy vositalar orqali ifodalanishini aniqlashdan iboratdir.

Nutqiy aktlarning sotsiopragmatik xususiyatlarini empirik jihatdan tahlil qilish jarayonida aynan mana shu masala – ya'ni kommunikativ niyatning til birliklari vositasida kodlanishi – markaziy o'rinni egallaydi. Chunki har bir nutqiy akt nafaqat grammatik shakl, balki ijtimoiy munosabatlar, kommunikativ vaziyat, suhbatdoshlarning maqomi, yoshi, jinsi, madaniy kompetensiyasi va diskursiv muhit bilan ham chambarchas bog'liq holda voqelanadi. Shu sababli nutqiy aktlarni faqat struktur-semantik nuqtai nazardan emas, balki sotsiopragmatik omillar bilan uyg'un holda o'rganish zarurati yuzaga keladi.

Masalan, o'zbek tilidagi iltimos nutqiy aktlari turli kommunikativ vaziyatlarda "iltimos", "marhamat", "mumkin bo'lsa", "bir daqiqa qarab yuboring", "sizdan bir narsani so'rasam" kabi yumshatish strategiyalari orqali ifodalanadi. Ushbu birliklarning tanlanishi esa ko'pincha kommunikantlar o'rtasidagi ijtimoiy masofa va status munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Yuqori maqomdagi shaxsga nisbatan bilvosita va muloyim strategiyalar ustuvor qo'llansa, teng maqomdagi suhbatdoshlar o'rtasida bevosita shakllar faolroq namoyon bo'ladi. Bu esa nutqiy aktlarning faqat lingvistik hodisa emas, balki ijtimoiy-madaniy mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

Empirik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek nutqiy muloqotida hurmat kategoriyasi nutqiy aktlarning shakllanishida muhim pragmatik determinant sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, buyruq va maslahat aktlarida hurmat affikslari, murojaat shakllari hamda

perifrazal konstruksiyalar keng qo‘llanadi. Natijada nutqiy aktning illokutiv kuchi yumshatiladi va kommunikativ hamkorlik prinsipi ta‘minlanadi. Bu holat o‘zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda kollektivlik, andisha va ijtimoiy subordinatsiya kabi qadriyatlar aks etadi.

Nutqiy aktlarni universal pragmatik kategoriyalar sifatida talqin qilish ularning lisoniy markerlarini aniqlash masalasini dolzarb ilmiy muammoga aylantiradi. O‘zbek tilidagi nutqiy aktlarning sotsiopragmatik tahlili esa kommunikativ niyatning til tizimida qanday vositalar orqali ifodalanishini, ijtimoiy omillar ta‘sirida qanday modifikatsiyaga uchrashini hamda milliy-madaniy mentalitet bilan qanday aloqadorlikda shakllanishini ochib berishga xizmat qiladi.

Nutqiy aktlar nazariyasini lingvistik kategoriya sifatida shakllantirishga oid dastlabki konseptual yondashuvlardan biri William Croft tomonidan ilgari surilgan. [1.460-477] Olim o‘zining 1994-yildagi tadqiqotida nutqiy aktlarni “gap turlari” (types of sentences) bilan o‘zaro munosabatda tahlil qilish zarurligini ta‘kidlaydi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, kommunikativ maqsad va gapning grammatik shakli o‘rtasida muayyan sistemaviy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, nutqiy aktlarning realizatsiyasi sintaktik va pragmatik vositalar orqali yuzaga chiqadi.

U. Kroft ushbu terminni Jerrold Sadock va Arnold Zwickyning 1985-yildagi tadqiqotidan o‘zlashtirgan bo‘lib, ular gap strukturasi asosiy semantik-pragmatik turlarini deklarativ (tasdiq), interrogativ (so‘roq) va imperativ (buyruq) shakllariga ajratadi.[2.155-196] Natijada uchta asosiy kommunikativ ma‘no – tasdiq, savol va buyruq kategoriyalari farqlanadi. Ushbu yondashuv nutqiy aktlarning til tizimidagi formal ko‘rsatkichlarini aniqlashga xizmat qilganligi bilan muhimdir.

Tilshunoslikda mazkur gap turlarini farqlovchi turli lingvistik markerlar mavjud. Masalan, ingliz tilida inversiya hodisasi orqali so‘roq gaplar darak va buyruq gaplardan ajratiladi. Rus tilida esa intonatsion kontur kommunikativ tipni aniqlovchi muhim pragmatik vosita hisoblanadi. O‘zbek tilida ham savol, tasdiq va buyruq mazmunlari maxsus morfologik shakllar, modal birliklar, yuklamalar hamda intonatsiya orqali ifodalanadi. Jumladan, “-mi”, “-chi” yuklamalari so‘roq ma‘nosini yuzaga chiqarishi

mumkin bo'lsa, buyruq-istak mayli shakllari imperativ nutqiy aktning asosiy grammatik ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi.

Nutqiy aktlarning sotsiopragmatik xususiyatlarini empirik jihatdan tahlil qilishda aynan mana shu formal markerlarning kommunikativ vaziyat bilan bog'liqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bir xil gap turi turli ijtimoiy kontekstlarda turlicha pragmatik maqsadni ifodalashi mumkin. Masalan, interrogativ shakldagi gap doimo sof savolni emas, balki iltimos, kinoya yoki talab ma'nolarini ham ifodalashi ehtimoldan xoli emas: "Eshikni yopib yubora olasizmi?" shaklan so'roq gap bo'lsa-da, pragmatik jihatdan iltimos nutqiy aktini ifodalaydi. Shu bois zamonaviy sotsiopragmatik tadqiqotlarda gap turlarining formal-struktur tasnifi bilan ularning real kommunikativ funksiyasi o'rtasidagi munosabatni o'rganish muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Bu esa nutqiy aktlarning nafaqat grammatik kategoriya, balki ijtimoiy-madaniy kommunikatsiyani tartibga soluvchi pragmatik mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

Nutqiy aktlar nazariyasida muhim metodologik masalalardan biri bilvosita nutqiy aktlar (indirect speech acts) muammosi bilan bog'liqdir. William Croft o'z tadqiqotida John Austin va John Searle tomonidan ilgari surilgan bilvosita nutqiy akt tushunchasini ikkilamchi hodisa sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, har bir nutqiy akt uchun muayyan standart yuzaki ifoda shakli mavjud bo'lib, aynan shu "to'g'ridan-to'g'ri" shakllar kommunikativ kategoriyaning asosini tashkil etadi. Shu sababli bilvosita nutqiy aktlar hosilaviy, periferik hodisa sifatida baholanadi va ular asosiy klassifikatsiyaga teng darajada kiritilmaydi.

Shu bilan birga, Anna Wierzbicka [3.491-514] tomonidan ta'kidlanganidek, nutqiy aktlar nazariyasi ingliz tiliga va G'arbiy Yevropa madaniyatiga xos kategoriyalar asosida shakllanganligi sababli uni universal tizim sifatida qabul qilish muammoli hisoblanadi. Masalan, ayrim nutqiy akt nomlari (masalan, "kompliment" kabi tushunchalar) ko'plab noyevropa madaniyatlarida aniq lingvistik ekvivalentga ega emas. Bu esa mavjud tasnifning madaniy jihatdan cheklanganligini ko'rsatadi. Agar nutqiy aktlarning haqiqiy lingvistik tipologiyasi ishlab chiqilsa, u holda bunday muammolar sezilarli darajada kamaygan bo'lar edi. Chunki tipologik yondashuv nutqiy aktlarni muayyan til yoki

madaniyatga bog‘lab qo‘ymay, ularni universal lingvistik-kognitiv kategoriyalar asosida tizimlashtirish imkonini beradi.

Nutqiy aktlar nazariyasining o‘ziga xosligi shundan iboratki, u tilshunoslikka deyarli o‘zgarishsiz – “asl holicha” kirib kelgan va pragmatika hamda diskursga yaqin bo‘lgan lingvistik hodisalarni izohlashda keng qo‘llanilmoqda. Bunday hodisalar qatoriga intonatsion konstruksiyalarning qo‘llanish qoidalari Andrej Kibrik [4] va Marina Molchanova [5] tomonidan o‘rganilgan masalalar, shuningdek, gapdagi so‘z tartibi Stephen Wechsler [6] tadqiqotlarida yoritilgan struktural xususiyatlar kiradi. Shu sababli nutqiy aktlar ko‘pincha “tashqi”, ya’ni sof lingvistik tizimdan mustaqil bo‘lgan hodisa sifatida talqin qilinadi. Hozirgi kungacha nutqiy aktlarning lingvistik tipologiyasini yaratish bo‘yicha barqaror ilmiy an’ana shakllanmagan bo‘lib, bu holat ularni tabiiy tillarning grammatik tavsifiga integratsiya qilish jarayonida qator metodologik qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Biroq zamonaviy sotsiopragmatik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, real kommunikatsiyada bilvosita nutqiy aktlar juda faol qo‘llanadi va ko‘pincha kommunikativ maqsad aynan ular orqali amalga oshiriladi. Bilvosita nutqiy aktlarda bir kommunikativ shakl boshqa bir illokutiv maqsadni ifodalash uchun xizmat qiladi. Natijada gapning grammatik tipi bilan uning pragmatik vazifasi o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Masalan, taklif yoki taklifnoma mazmunidagi nutqiy akt turli struktur shakllar orqali ifodalanishi mumkin:

- “Mehmonga kel!” – imperativ shakl;
- “Seni mehmonga taklif qilaman” – deklarativ shakl;
- “Biznikiga mehmon bo‘lib kelasanmi?” – interrogativ shakl.

Mazkur misollarda gaplarning sintaktik tuzilishi turlicha bo‘lsa-da, ularning illokutiv maqsadi bitta – taklif nutqiy aktini amalga oshirishdan iborat. Bu holat nutqiy aktlarni faqat grammatik shakl asosida tasniflash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Chunki kommunikativ niyat ko‘pincha lingvistik shakldan tashqarida, ya’ni kontekst, ijtimoiy munosabat, kommunikativ vaziyat va diskurs sharoiti orqali aniqlanadi.

O‘zbek tilining sotsiopragmatik tizimida ham bilvosita nutqiy aktlar keng qo‘llanadi. Ayniqsa, milliy nutq madaniyatida hurmat, muloyimlik va kommunikativ etikaga yuqori darajada amal qilinishi sababli buyruq, rad etish yoki tanbeh kabi aktlar ko‘pincha bilvosita shaklda ifodalanadi. Masalan, “Derazani yopib yuborsangiz bo‘lardi” shaklan istak yoki mulohaza mazmunida ko‘rinsa-da, pragmatik jihatdan buyruq yoki iltimos aktini ifodalaydi. Shu tariqa, bilvosita nutqiy aktlar kommunikativ yumshoqlikni ta‘minlovchi sotsiopragmatik vosita vazifasini bajaradi.

Mazkur yondashuv nutqiy aktlarning sotsiopragmatik xususiyatlarini empirik tahlil qilishda alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Chunki dialog jarayonida kommunikativ ma‘no faqat boshlang‘ich replika orqali emas, balki unga berilgan javob orqali ham shakllanadi. Ayniqsa, diskursiv formulalar (discourse formulas) deb ataluvchi tayyor kommunikativ birliklar adresatning pragmatik munosabatini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi.

O‘zbek tilida ham bunday diskursiv formulalar keng uchraydi va ular milliy nutq madaniyatining sotsiopragmatik xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan, “Bo‘lmasam-chi!”, “Ana xolos!”, “Hecham-da!”, “Shunaqami?”, “Xuddi shunday!”, “Qo‘ysangiz-chi!” kabi formulalar adresatning nutqiy pozitsiyasini, emotsional munosabatini hamda kommunikativ bahosini ifodalaydi. Ushbu birliklar ko‘pincha dialogik nutqda yuzaga kelib, kommunikativ vaziyat, ijtimoiy masofa, suhbatdoshlarning maqomi va emotsional holati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shu jihatdan qaralganda, nutqiy aktlarning markerlarini faqat boshlang‘ich replikada emas, balki javob replikalarida ham izlash zarurati yuzaga keladi. Chunki adresatning reaksiyasi nutqiy aktning pragmatik kuchini aniqlashda muhim diagnostik vosita vazifasini bajaradi. Natijada dialogik birliklar va diskursiv formulalarni tahlil qilish nutqiy aktlarning sotsiopragmatik mexanizmlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Diskursiv formulalarning (DF) nutqiy aktlarning lingvistik markerlari sifatida xizmat qila olishini asoslash uchun ularning pragmatik va funksional tabiati chuqurroq tahlil qilinishi zarur. Shu sababli zamonaviy pragmalingvistik tadqiqotlarda DF birliklari alohida kommunikativ hodisa sifatida o‘rganilib, ularning dialogik nutqdagi vazifalari, struktur

xususiyatlari hamda pragmatik funksiyalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, nutqiy aktlarning sotsiopragmatik xususiyatlarini empirik tahlil qilishda diskursiv formulalar kommunikativ ma'no va illokutiv kuchni aniqlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Diskursiv formulalarni tadqiq etishda, avvalo, ularning shakllanish tarixi, lingvistik maqomi hamda boshqa diskurs markerlari bilan munosabatini aniqlash muhim hisoblanadi. Chunki DF birliklari oddiy leksik yoki sintaktik konstruksiyalardan farqli ravishda tayyor kommunikativ qolip sifatida qo'llanadi va ko'pincha so'zlovchi hamda tinglovchi o'rtasidagi pragmatik munosabatni ifodalaydi. Shu jihatdan ular undov birliklari, modal formulalar, pragmatik markerlar va dialogik stereotiplar bilan yaqin aloqador bo'lsa-da, o'zining yuqori darajadagi formulaviyligi hamda kommunikativ reaksiyani ifodalashi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, diskursiv formulalar Construction Grammar doirasida talqin qilinadigan standart konstruksiyalardan ham farqlanadi. Konstruksion grammatika yondashuvida til birliklari shakl va ma'noning barqaror juftligi sifatida izohlansa, diskursiv formulalarda asosiy urg'u kommunikativ vazifa va pragmatik effektga qaratiladi. Ya'ni DF birliklarining ma'nosi ko'pincha grammatik tuzilishdan emas, balki kommunikativ vaziyat, intonatsiya, emotsional fon va dialogik kontekstdan kelib chiqadi. Shu bois ular sotsiopragmatik jihatdan yuqori darajada kontekstual birliklar hisoblanadi. Nutqiy aktlar bilan diskursiv formulalar o'rtasidagi korrelyatsiyani aniqlash esa pragmatik tadqiqotlarning muhim bosqichlaridan biridir. Chunki ayrim DF birliklari muayyan nutqiy aktlarga muntazam ravishda javob reaksiyasi sifatida qo'llanadi va shu orqali illokutiv ma'noni identifikatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, rad etish, taqiq, norozilik yoki inkor mazmunidagi nutqiy aktlar ko'pincha maxsus diskursiv formulalar yordamida ifodalanadi.

Rus va ingliz tillari materiallari asosida olib borilgan empirik kuzatishlar ham aynan taqiq va rad etish semantikasiga ega DF birliklarining dialogik kommunikatsiyada faol ishlatilishini ko'rsatadi. O'zbek tilida ham "Hech qachon!", "Aslo mumkin emas!", "Qo'ying!", "Yo'q, bo'lmaydi!" kabi formulalar rad etish yoki taqiqlash mazmunidagi

nutqiy aktlarning sotsiopragmatik markerlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning qo‘llanishi kommunikativ vaziyat, ijtimoiy maqom, suhbatdoshlar o‘rtasidagi masofa hamda emotsional holat bilan chambarchas bog‘liqdir. Demak, diskursiv formulalarni nutqiy aktlar bilan bog‘liq holda o‘rganish dialogik nutqning pragmatik mexanizmlarini aniqlash, kommunikativ intensioning ifodalanish usullarini tavsiflash hamda tilning sotsiopragmatik imkoniyatlarini ochib berishda muhim nazariy va empirik ahamiyat kasb etadi.

Pragmalingvistika va sotsiopragmatika doirasida “rutin birliklar” (routines) kommunikativ vaziyat bilan uzviy bog‘langan tayyor nutqiy formulalar sifatida talqin qilinadi. Ushbu tushuncha, avvalo, Florian Coulmas hamda Karin Aijmer tadqiqotlarida keng yoritilgan bo‘lib, ular rutinalarni asosan nutqiy etiket formulalari bilan bog‘laydi. Jumladan, “Oq yo‘l”, “Yaxshi boring”, “Kechirasiz”, “Rahmat” kabi birliklar muayyan kommunikativ vaziyatda avtomatik tarzda qo‘llanadigan standart nutqiy reaksiyalar sifatida baholanadi. Biroq zamonaviy dialogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday formulaviy birliklar faqat muomala odobi doirasidagina emas, balki kundalik muloqotning boshqa ko‘plab kommunikativ vaziyatlarida ham uchraydi. Masalan, “Kim u?”, “Kim kerak edi?”, “Ushla uni!”, “Qayerga ketayapsan?” kabi birliklar ham muayyan vaziyatga bog‘langan tayyor kommunikativ reaksiyalar hisoblanadi. Shu bois rutinalar tushunchasi kengroq talqin qilinib, har bir rutina ma’lum bir ijtimoiy-madaniy ssenariy bilan bog‘liq bo‘lgan standart nutqiy javob sifatida izohlanadi.

Demak, rutina – bu muayyan kommunikativ vaziyat taqozo qiladigan, madaniy va ijtimoiy jihatdan shakllangan tayyor nutqiy reaksiya hisoblanadi. Masalan:

- “eshik taqillaydi” → “Kim u?”;
- “xonaga notanish kishi kiradi” → “Kim kerak edi?”

Mazkur birliklarning qo‘llanishi kommunikativ vaziyat bilan qat’iy bog‘langan bo‘lib, ular boshqa kontekstlarda erkin ishlatilmaydi. Shu jihatdan rutinalar milliy nutq madaniyatining stereotip kommunikativ modellari sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq sotsiopragmatik nuqtai nazardan vaziyatga nisbatan bildiriladigan standart reaksiyalar bilan nutqiy xatti-harakatga javob tarzida yuzaga keladigan diskursiv formulalarni (DF)

farqlash muhimdir. Diskursiv formulalar bevosita boshqa bir nutqiy aktga munosabat sifatida shakllanadi va ular rutinalardan farqli ravishda erkinroq pragmatik xarakterga ega bo‘ladi. Ya’ni DF birliklari qat’iy madaniy ssenariy bilan emas, balki kommunikativ intension va dialogik munosabat bilan belgilanadi.

Masalan:

- “Kiring.” – “Hecham-da! Kirmayman!”
- “Vasiliy Petrovich kerakmidi?” – “Albatta!” / “Qani endi!”

Bu kabi javob replikalari adresatning rozilik, inkor, istehzo, norozilik yoki emotsional bahosini ifodalaydi. Ularning tanlanishi kommunikativ vaziyat, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat, emotsional holat va individual pragmatik strategiyaga bog‘liqdir. Shu sababli diskursiv formulalar rutinalarga qaraganda ko‘proq subyektiv-pragmatik xarakter kasb etadi.

Shuningdek, ritualizatsiyalashgan dialoglar ham rutinalar tarkibiga kiradi. Masalan:

- “Rahmat.”
- “Arzimaydi.” / “Marhamat.” / “Sog‘ bo‘ling.”

Bunday dialogik ketma-ketliklar ijtimoiy etikani saqlashga xizmat qiluvchi barqaror kommunikativ qoliplardir. O‘zbek tilida ham “Rahmat – Arzimaydi”, “Xayr – Xo‘p, salomat bo‘ling”, “Assalomu alaykum – Va alaykum assalom” kabi formulalar milliy nutq madaniyatining ritual kommunikativ birliklari sifatida faol qo‘llanadi. Demak, rutinalar va diskursiv formulalar o‘rtasidagi farqni aniqlash nutqiy aktlarning sotsiopragmatik tabiatini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Rutinalar ijtimoiy-madaniy stereotip vaziyatlarga bog‘langan standart reaksiyalarni ifodalasa, diskursiv formulalar dialogik nutqda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi pragmatik munosabatni, emotsional bahoni hamda kommunikativ strategiyani aks ettiradi.

Demak, diskursiv formulalarning fiksatsiyalashgan tabiati nafaqat ularning pragmatik maqomini belgilaydi, balki ularni avtomatik tahlil qilish, lug‘atlashtirish va sotsiopragmatik tadqiqot obyektiga aylantirish imkonini ham yaratadi. Shu jihatdan DF birliklari zamonaviy pragmatik hamda amaliy tilshunoslikning istiqbolli tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Croft W. Speech act classification, language typology and cognition. Foundations of speech act theory: Philosophical and linguistic perspectives. Tsohatzidis S. L. (ed.). – London: Routledge, 1994. – P. 460–477.
2. Sadock J.M., Zwicky A.M. Speech act distinctions in syntax. Language Typology and Syntactic Description, 1985, 1: 155–196
3. Wierzbicka A. A semantic metalanguage for a crosscultural comparison of speech acts and speech genres. Language in Society, 1985, 14: 491–514.
4. Kibrik A. Interaction of the verbal, prosodic, and visual components in language understanding. Paper presented at the conf. “The Night Whites Language Workshop. St. Petersburg Winter Symposium on Experimental Studies of Speech and Language” (St. Petersburg, 16–17 December 2011).
5. Кибрик, Молчанова 2014 – Кибрик А. А., Молчанова Н. Б. Каналы мультимодальной коммуникации: тносительный вклад в понимание дискурса. Материалы семинара «Мультимодальная коммуникация: теоретические и эмпирические исследования» (Москва, 2013 г.). М.: Буки Веди, 2014, 99–114.
6. Wechsler S. Verb second and illocutionary force. Views on phrase structure. Leffel K., Bouchard D. (eds.). Dordrecht: Springer Netherlands, 1991, 177–191.